

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

MASOFAVIY TA'LIM VA UNING TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION SHAKL VA METOD SIFATIDA O'RNI

Sag'inbaeva Damexan Aytbaevna

Nukus tuman kasb-hunar maktabi o'qituvchilari

Tanirbergenova Fatima Orazbay qizi

Nukus tuman kasb-hunar maktabi o'qituvchilari

Xojamuratova Shadlixan Artikbayevna

Nukus tuman kasb-hunar maktabi o'qituvchilari

Annotatsiya

Ushbu maqolada masofaviy ta'lim va uni tashkil etish, masofaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan talablar shunigdek uning afzalliklari, kamchiliklari va ta'lim tizimidagi o'rni haqida yozilgan.

Kalit so'z: masofaviy ta'lim, masofaviy ta'lim texnologiyalari, o'quv jarayoni, innovatsion shakl va metod.

Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq

SH.M.Mirziyoev

Zamonaviy sharoitda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta'lim jarayonida ularning imkoniyatlaridan foydalanish uchun qulay sharoitni vujudga keltirdi. Ayni vaqtda yetakchi xorijiy mamlakatlar masofadan o'qitish borasida boy tajriba to'plangan. O'zbekiston sharoitida mustaqillik yillarida ta'limning bu turini qo'llashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Tobora ommalashib borayotgan ushbu ta'limning mazmunini yoritishda dastlab tushunchaning mohiyati anglab olish maqsadga muvofiqdir. Manbalarda



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

“masofaviy ta’lim” tushunchasi turlicha talqin etilgan. Bu hol bevosita masofadan o‘qitishning asosiy elementlari tadrijiy takomili (evolyutsiyasi) bilan uzviy bog‘liq. Zero, mazkur ta’lim turi rivojlanishining har bir bosqichida tasavvurlar qayd etilib, masofaviy o‘qitishning vazifa va ta’riflariga turli nuqtai nazardan yondashish mavjud. Bunda masofaviy ta’limning rivojlanish bosqichlari asos qilib olinadi.

Manbalarda “masofaviy ta’lim” tushunchasiga berilgan ta’riflarga tayangan holda atamani quyidagicha ta’riflash mumkin:

Masofaviy ta’lim – muayyan nuqtadan axborot-kommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televideniya va b.) yordamida ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, ta’limiy mahsulotlarni tarqatish va yetkazib berishday an’anaviy hamda innovatsion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta’lim resurslaridan foydalanishga yo‘naltirilgan ta’lim [1].

Masofaviy o‘qitishning quyidagi afzalliklari ajralib turadi:

- tinglovchilar sonini oshishi;
- fan sohalaridagi ilg‘or o‘qituvchilar, olimlar va ekspertlarning ma’ruza ishlariga jalb etilishi;
- turli davlatlardagi tinglovchilar va o‘qituvchilarning birlashuvi;
- o‘quv jarayonining faol o‘qitish usullari va yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda tashkil etilishi;
- tinglovchilarning bevosita kommunikatsiya yangiliklarini o‘zlashtirishi.

Masofaviy ta’limni qo‘llashning bir qator ustunlik va qulaylik tomonlari mavjud, jumladan:

- ta’lim vaqti ixtiyoriy, talaba istagan vaqtda o‘qishi, o‘rganishi mumkin;
- mashg‘ulotlarni auditoriyada o‘tish shart emas;
- talabalarga mustaqil shug‘ullanishni o‘rgatadi;
- o‘qituvchilardan yuqori tayyorgarlikni talab qiladi;
- talabalar amaliy va sifatli bilim olishlari mumkin;
- talabalarning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi;
- talabalarda texnik qurilmalar bilan ishlash, kompyuter, Internet, elektron pochta tizimlaridan foydalanish ko‘nikmasi rivojlanadi;
- ta’lim arzonligi tushadi. Ayniqsa, kam ta’minlangan oilalardagi iqtidorli yoshlarning bilim olishiga yangi sharoit paydo bo‘ladi;
- agar ta’lim olishga vaqt kam bo‘lsa yoki ta’lim muassasasi yashash joyidan uzoqda bo‘lsa, kishi o‘zi uchun qulay vaqtda ishdan ajralmagan holda ta’lim olishi mumkin;



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

• ta'lim olish chegara tanlamaydi, ya'ni talabalar boshqa joylarda viloyatda turib ham bilim olishi mumkin.

Shu bilan birga kelajak uchun muammo bo'lgan kamchiliklari ham mavjud:

- foydalanishda zarur kompyuter va texnika qurilmalari albatta mavjud bo'lishi;
- kerakli texnologiyalardan foydalanishda yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi;
- texnik ko'rsatkichlarga tobe bo'lishi kabilardir.

Masofaviy ta'limni tashkil etisha o'qituvchilarning faoliyati faqatgina o'quv axborotlarini uzatish bilan cheklanmaydi. Shu sababli bu turdagi ta'limni tashkil etishga bir necha mutaxassis jalb qilinadi. Ular o'z vazifalariga ko'ra turlicha nomlanadi [2].

Xususan:

1. O'qituvchi – masofaviy ta'limni tashkil etishda foydalaniladigan o'quv-metodik qo'llanmalarining muallifi.
2. Moderator – masofaviy ta'lim negizida tashkil etilayotgan seminar, trening, davra suhbat va forumlarga boshchilik qiluvchi (boshqaruvchi) pedagog (u muloqot jarayonining to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi, bildirilayotgan fikrlarni umumlashtiradi, zarur bo'lganda ularni to'g'rilaydi, ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, bilish faoliyatlarini faollashtiradi).
3. Tyutor (lot. “tutorem”) – o'quv kurslari uchun interfaol metodlarni tanlovchi, ma'ruza o'qituvchisi bilan talaba o'rtasida ta'limiy aloqani o'rnatuvchi ustoz, murabbiy.
4. Edvayzer (fr. “avisen” – “o'ylamoq”, “advisor” – “o'ylovchi”) bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarining ta'lim oluvchilar tomonidan individual, mustaqil bajarilishi vaqtida metodik yordam beradigan maslahatchi.
5. Fasilitator (lot. “facilis”, ingl. “facilitator” – yengil, qulay) – masofaviy ta'lim xizmatidan foydalanayotgan guruhlarining faoliyatini natijasini muammoning ilmiy yechimini topishga yo'naltiruvchi, guruhlarda yuzaga keladigan muloqotni rivojlantiruvchi, shuningdek, guruhlar faoliyatini xolis, samarali baholovchi pedagog.
6. Invigilator – masofaviy ta'lim asosida tashkil etiladigan o'qitish natijalarini nazorat qiluvchi mutaxassis-pedagog.

Masofaviy ta'lim texnologiyalari quyidagicha asosiy talablarga javob bera olishi zarur (1-rasm):




Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com



1-rasm. Masofaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan talablar.

Shu bilan birga masofaviy ta'lim texnologiyalari quyidagi qo'shimcha talablarga javob bera olishi zarur:

1. Adaptatsiya (ta'lim oluvchining o'z shaxsi, turar-joy sharoiti, moliyaviy ahvoli, psixologik va fiziologik xususiyatlari ko'ra ta'lim jarayoniga moslasha olishi zarurligini ifodalaydi).
2. Iqtisodiy muvofiqlik (bu talab ta'lim tizimini moliyalashtirishda mablag'lar miqdorining cheklanganligini bildiradi).
3. O'zgaruvchanlik (u ta'lim sifati va mazmunini tezkor, izchil, uzluksiz yangilab borish, o'quv manbalari va materiallarini modernizatsiyalash zarurligini anglatadi).
4. Nazorat (o'qitishning barcha bosqichlarida ta'lim natijalarini sifatli nazorat qilish, tinglovchi shaxsini aniqlash muhimligini ifodalaydi)

Axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq etishda bu tizimda faoliyat olib boruvchi o'qituvchilar malakasini oshirishga yuqori talablar qo'yiladi. O'qituvchi malaka oshirish tizimiga kelishlari bilan ta'lim berish subyektidan ta'lim olish obyektiga aylanadi va o'quv jarayonidagi o'zaro munosabatlar xarakteri o'zgaradi [3].

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan manbalar tahliliga ko'ra, biz masofaviy ta'limdan barkamol avlodni ta'lim va tarbiya berishda ya'niy ta'lim tizimimizga o'z miliylikimizni uyg'unlashtirgan holda samaradorligini oshirishimiz shu bilan birga albatta o'qituvchilar o'z mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion shakl va metod sifatida o'quvchilarning ta'lim-tarbiya olishida va kasb-hunar egallashda o'z hissasini qo'shadi.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. N.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Sayfurov, A.To‘raev “Innovatsion ta’lim texnologiyalari” Toshkent-2015.
2. Farg‘ona viloyati pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti masofadan o‘qitishni hududiy muvofiqlashtirish markazi “O‘qitishning zamonaviy usullari” fani bo‘yicha o‘quv materiallari Farg‘ona-2010.
3. M.Aripov, B.Begalov, U.Begimqulov, M.Mamarajabov “Axborot texnologiyalari” Toshkent-2009.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE
SERIES